


VI. TRANSPORT



Transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 1 934,9 mlrd so'mni, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil etdi.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 11,4 % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Yuk tashish va yuk aylanmasining transport turlari bo'yicha ifodalanishi

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2025-yil yanvar-sentabr)



Yuk tashish va yuk aylanmasining transport turlari bo'yicha ifodalanishi

	2025 yil yanvar-sentabr	2024 yil yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati % da
--	-------------------------	---

Yuk tashish va yo'lovchi tashish



Tashilgan yuk, mln tonna	29,1	104,3
--------------------------	------	-------

shu jumladan:

Avtomobil transportida	29,1	104,3
------------------------	------	-------

Tashilgan yuklar o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi

Yuk aylanmasi, mln tn-km	881,7	102,3
--------------------------	-------	-------

Tashilgan yo'lovchilar o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi

<i>shu jumladan:</i>		
----------------------	--	--

Avtomobil transportida	881,7	102,3
------------------------	-------	-------

Yuk tashish va yo'lovchi tashish (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


Yuk tashish	110,5 %	100,9 %	104,3 %
Yo'lovchi tashish	101,7 %	101,1 %	102,8 %
	2023-yil	2024- yil	2025-yil

Yuk tashish va yuk aylanmasining transport turlari bo'yicha ifodalanishi

Transport statistikasi bu – transportda sodir bo'ladigan hodisalar va jarayonlarni o'rganadigan statistika sohasidir. Transport statistikasi ko'rsatkichlari transportning alohida turlari bo'yicha ma'lumotlarni: temir yo'l, avtomobil, shahar elektr, quvur yo'li va havo ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Yuk tashish (yuk tashish hajmi) – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalaridagi miqdori (pullik bagaj va pochtani qo'shgan holda). Ko'rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo'yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo'natilgan yuklar (jo'natish)” ko'rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” ko'rsatkichi hisoblanadi.


Yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



So'nggi uch yil ichida yuk tashish ko'rsatkichlarining sezilarli o'sishi 2023 va 2025-yillarning yanvar-sentabr oylarida qayd etildi. Shu bilan birga, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'atining kamayishi kuzatildi.

Yuk tashish bo'yicha barcha kuzatilayogan transport turlari orasida avtomobil transportining ulushi ustunlik qildi (29,1 mln tonna).

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
(2025- yil yanvar-sentabr)**



Yo'lovchi tashish 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 71,2 mln kishi tashilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,8 % ni tashki qildi.

Yirik korxonalar bo'yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo'yicha hajmli korxonalar soni 29 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 2,4 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 149,2 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 8,4 %);

Yuk aylanmasi hajmi 29,4 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 141,0 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 3,3 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 0,5 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 m. ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 0,7 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 16,3 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 m. ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 0,8 %).

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 99,3 % ni tashkil etdi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2025- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln kishi	71,2	102,8
<i>shu jumladan:</i> avtomobil transportida	71,2	102,8
Yo'lovchi aylanmasi, mln yo'lovchi-km	1 944,4	101,3
<i>shu jumladan:</i> avtomobil transportida	1 944,4	101,3

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha:

2025 -yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti bo'yicha quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 20,1 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 68,8 %);

Yuk aylanmasi hajmi 422,7 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 47,9 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 24,5 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 34,5 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 524,1 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 27,0 %).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha:

Tashilgan yuklar hajmi 6,6 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,7 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 22,8 %);

Yuk aylanmasi hajmi 429,5 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,3 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 48,8 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 46,2 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 64,8 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 1 403,9 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 72,2 %).